

PhD Jamshid BO‘RIYEV

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

TIJORAT BANKLARI USTAV KAPITALI, SOF FOYDASI, ODDIY VA IMTIYOZLI AKSIYALARI TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada respublikamizdagi tijorat banklari ustav kapitali, sof foydasi, oddiy va imtiyozli aksiyalari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilingan. Tahlillarga ko‘ra umumiy ustav kapitalida davlat ulushi yuqori bo‘lsada, davlat ishtirokidagi tijorat banklari sof foydasi nihoyatda pastligi aniqlangan. Shunday sharoitda xususiy banklar sof foydasi va rentabelligi yuqoriligi aniqlangan. Natijada tijorat banklarini xususiylashtirish zarurligi, buning uchun banklar investitsion jozibadorligini oshirish muhimligi bo‘yicha xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: xususiy kapital, sof foyda, oddiy aksiya, imtiyozli aksiya, rentabellik.

ANALYSIS OF THE AUTHORIZED CAPITAL, NET PROFIT, ORDINARY AND PREFERRED SHARES OF COMMERCIAL BANKS

Abstract. This article analyzes the interrelationship of the authorized capital, net profit, ordinary and preferred shares of commercial banks in our republic. According to the analysis, although the state share in the total authorized capital is high, the net profit of commercial banks with state participation is extremely low. In such conditions, it was found that the net profit and profitability of private banks are high. As a result, conclusions were drawn on the need to privatize commercial banks and the importance of increasing the investment attractiveness of banks for this.

Keywords: private capital, net profit, ordinary shares, preferred shares, profitability.

Kirish

Jahon amaliyotida tijorat banklari kapital jalb qilishning turli usullaridan foydalanadi. Shular qatorida aksiyalar emissiyasi xususiy kapitalni shakllantirish va oshirib borishning eng muhim va samarali instrumentlaridan biridir. AQSh, Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlarida aksiyalar chiqarish bank kapitalini oshirish, investorlarni jalb qilish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Eng asosiy jihatlardan biri shubhasiz yuqori investitsion jozibadorlik asosida tijorat banklari qo‘shimcha aksiyalar emissiyalari vositasida qo‘shilgan kapitalning oshib borishi va arzon kapitalga egalik qilishdir. Bunda kapital jalb qilish bo‘yicha raqobatdagi ustunlik o‘z-o‘zidan butun faoliyat bo‘yicha ustunlikka, yuqori samaradorlik xizmat qiladi.

O‘zbekistonda esa moliya bozorlarini rivojlantirish, bank tizimining barqarorligini ta‘minlash hamda aholining investitsion faolligini kuchaytirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mamlakatimizda keyingi yillarda tijorat banklarining ustav kapitali minimal miqdori 500 milliard so‘mgacha oshirildi. Yaqin istibolda “umumiy bank aktivlari tarkibida xususiy banklar ulushini 60 foizga yetkazish” [1], banklar aksiyalarini ommaviy joylashtirish masalalari ustuvor

vazifalar qatorida qayd etilmoqda. Bunda tijorat banklarining ichki va tashqi investitsiyalarni faol jalb qilishlarini kengaytirish alohida ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lsada aksriyat holatlarda qarz kapitali bilan chegaralanib qolinmoqda, birorta ham tijorat banki aksiyalari bugungi kunga qadar ommaviy joylashtirishga ichki bozorda ham chiqarilmadi. Tijorat banklari ustav kapitalida davlat ulushi yuqoriligi va investitsion jozibadorligi pastligi sababli aksariyat davlat ishtirokidagi banklar aksiyalari nominal qiymatdan ham past sotilmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Tijorat banklari ustav kapitali shakllanishi, oddiy va imtiyozli aksiyalar emissiyasi, sof foyda va uning taqsimoti kabi jihatlar mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqot muassasalari, tadqiqotchilar doimiy e'tiboridagi masalalardan biridir. Mazkur jihat tijorat banklarining iqtisodiyotda roli yuqoriligi bilan izohlanadi.

Tijorat banklarining bozor qiymatini shakllantirishga doir tadqiqotlar olib borgan A.Gulyamova "Bank resurslarining boshqa manbalaridan farqli o'laroq, o'z kapitali doimiy va qaytarilmaydigan bo'lib, aniq belgilangan huquqiy asosga va funksional aniqlikka ega bo'lib, har qanday tijorat bankining shakllanishi va faoliyatining zaruriy sharti hisoblanadi. U barcha tijorat banklari faoliyatining birinchi kunidanoq asos bo'lib xizmat qiladi. O'z kapitali miqdori bankning barqarorligi, to'lov qobiliyati va ishonchligini baholashda muhim rol o'ynaydi va tartibga solish standartlarini, xususan, Bazel III standartlari va regulyator talablari bajarilishini baholash uchun ishlatiladi", deya qayd etib o'tadi [2].

Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining rolini oshirishga doir tadqiqotlar olib borgan E.Nasirov tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorida sof raqobat muhitining mavjudligi tijorat banklarining mazkur bozordagi roliga o'z ta'sirini ko'rsatishi alohida qayd etib o'tilgan. Shuningdek, respublikamiz tijorat banklariga xalqaro fond birjalari listingiga kirish va xorijiy valyutadagi o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmaganligi alohida ta'kidlanadi [3]. Tadqiqotchi bu fikrlarni 2006-yilda qayd etganligidan kelib chiqsak, o'tgan 20 yil daomida fond bozorida raqobat hamon mavjud emas. Davlat ishtirokidagi ayrim banklar xalqaro obligatsiyalari xalqaro fond bozorida listingdan o'tgan bo'lsada, depozitar tilxatlar vositasida aksiyalar xalqaro bozorga hamon chiqmagan. Qolaversa milliy tijorat banklarining erkin muomaladagi tijorat banklari aksiyalari hajmi keskin pastligicha qolmoqda.

Tijorat banklari kapitallashuvini oshirish muammolariga doir ilmiy izlanishlar olib borgan I.Tursunov "milliy tijorat banklari aksiyalari muntazam kotirovkalari mavjud emasligi ularning investitsion jozibadorligini pasaytirmoqda va xususiylashtirish jarayonini o'tkazishda to'siq sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek bank kapitallashuvini oshirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash hisobiga bank resurs bazasini kengaytirish imkonini

bermayapti”, deya ta’kidlaydi [4]. Xususiylashtirish va qo’shimcha aksiyalarni ochiq joylashtirish shubhasiz aksiyalarning ikkilamchi bozordagi oldi-sotdisiga bevosita bog’liq. Bu jihat tadqiqotchi ta’kidlagan davrdan keyin ham muammoligicha qolmoqda.

Tijorat banklarida dividend siyosatining aksiyalar bozoriga ta’siriga doir tadqiqotlar olib borgan R.Kunarov “Tijorat banklaridagi davlat ulushini xususiylashtirishni samarali tashkil etish hamda investitsion jozibadorlikni oshirishga yo’naltirilgan holda dividend siyosatini amalga oshirish va aksiyalar daromadlilikini belgilash zarur. Mazkur choralarni qo’llash orqali tijorat banklarining investitsion jozibardorligini yuqori darajaga ko’tarish, davlat ishtirokidagi tijorat banklarning ulushini kamaytirish, tijorat banklarida samarali korporativ boshqaruvni joriy etish imkoniyatlari yuzaga keladi”, deya ta’kidlaydi [5]. Mazkur jihatlariga yetarlicha e’tibor qaratilishi qimmatli qog’ozlar bozorining rivojlanishi orqali iqtisodiyotni moliyalashtirishda ham raqobatni yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tijorat banklari ustav kapitali, sof foydasi, oddiy va imtiyozli aksiyalari tahliliga doir mazkur tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy taqqoslash, deduksiya, induksiya, analiz, sintez, taqqoslama tahlil, statistik tahlil, prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Tijorat banklari ustav kapitali faoliyatdagi asosiy manbadir. Bunda ustav kapitalini shakllantirish maburiy talabdir. 2025-yil 1-avgust holatiga 35 ta tijorat bankining birgalikdagi ustav kapitali 90315,85 milliard so’mga teng (1-jadval).

1-jadval

Mamlakatimizdagi tijorat banklari ustav kapitali va uning umumiy hajmdagi ulushi tahlili

№	Bank nomi	Ustav kapitali	Jamiga nisbatan ulush
1	O‘zmilliybank	15 960,94	17,67%
2	O‘zsanoatqurilishbank	4 628,94	5,13%
3	Agrobank	12 430,19	13,76%
4	Mikrokreditbank	7 145,34	7,91%
5	Xalq banki	11 517,31	12,75%
6	Aloqabank	2 832,88	3,14%
7	Biznesni rivojlantirish banki	5 689,08	6,30%
8	Turonbank	1 484,14	1,64%
9	Asakabank	7 164,95	7,93%
10	Hamkorbank	646,65	0,72%
11	Garant bank	500	0,55%

№	Bank nomi	Ustav kapitali	Jamiga nisbatan ulush
12	Ipak yo'li bank	602,42	0,67%
13	Ziraatbank	554,3	0,61%
14	Trastbank	1 000,25	1,11%
15	Ipotekabank	3 834,22	4,25%
16	O'zKDB bank	506,36	0,56%
17	Eron Soderot bank	500	0,55%
18	Universalbank	500	0,55%
19	Kapitalbank	502,39	0,56%
20	Oktobank	500	0,55%
21	Davr bank	500	0,55%
22	Invest Finans bank	948,75	1,05%
23	Aziya Alyans bank	660,26	0,73%
24	Orient Finans bank	1 964,13	2,17%
25	Madad invest bank	500	0,55%
26	AVO bank	692,89	0,77%
27	Poytaxtbank	100	0,11%
28	Tengebank	1 149	1,27%
29	TBC bank	2 120,46	2,35%
30	Anor bank	800	0,89%
31	Uzumbank	500	0,55%
32	APEX bank	530	0,59%
33	Smart bank	500	0,55%
34	Yangi bank	350	0,39%
35	Hayot bank	500	0,55%

Manba: Tijorat banklari ustavi asosida muallif tomonidan tuzilgan, 01.08.2025 holatiga.

Ustav kapitalini taqqoslaydigan bo'lsak 9 ta davlat ulushi yuqori bo'lgan tijorat banklari ustav kapitali 68 853,77 milliard so'mni tashkil etadi hamda bu miqdor barcha banklar umumiy ustav kapitalining 76,24 foizini tashkil etadi. Xususiy banklar ustav kapitali esa umumiy ustav kapitalining 1/4 qismidan ham past. Bunda eng yuqori 17,67 foizlik ulush O'zmilliybankka tegishlidir. Keyingi o'rinlardagi Agrobank 13,76 foiz va Xalq banki 12,75 foiz ulushga egalik qilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Garchi xususiy banklar ustav kapitali nuqtai nazaridan davlat ishtirokidagi tijorat banklari bilan raqobatlasha olmayotgan bo'lsada, sof foyda bo'yicha yuqori natijalar qayd etib kelayotganligini quyidagi rasm ko'rsatib turibdi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekistondagi tijorat banklarining 2023-2024 yillardagi sof foydasi tahlili [6]

2024-yilda esa respublikamizdagi barcha tijorat banklari sof foydasi 6,96 trillion so‘mni tashkil etgani holda 2023-yilga nisbatan qariyb ikki barobarga pasaygan. Chunki 2023-yilda barcha tijorat banklari sof foydasi 12,373 trillion so‘mni tashkil etgan. 2024-yil yakunlariga ko‘rsa sof foyda pasayishi asosan davlat banklariga tegishlidir. 2023-yilda yuqori foyda olgan Top-10 ta tijorat bankining 6 tasi xususiy banklar bo‘lsa, 2024-yilda 8 ta xususiy bank Top-10 talik renkingdan joy olgan.

Davlat ishtirokidagi tijorat banklari umumiy sof foydasi pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan bir vaqtda xususiy tijorat banklari sof foydasi o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. Xususiy tijorat banklari 2024-yildagi jami sof foydasi 7,3 trillion so‘mni tashkil etgan. Eng yuqori sof foyda TOP-10 taligi 8 nafari xususiy banklar ekanligi bank sohasida ham xususiy biznes samaradorligi yuqoriligini ko‘rsatadi. Davlat ishtirokidagi tijorat banklariga nisbatan ustav kapitali past bo‘lsada xususiy banklar sof foydasi va rentabelligi yuqoridir. Misol uchun, Hamkorbankning 646,65 milliard so‘m ustav kapitali asosida 2024-yilda 1,42 trillion so‘m sof foydaga erishganligi haqiqatda ulkan natijadir. Keyingi o‘rindagi yana bir xususiy bank Kapitalbank 502,39 milliard so‘mlik ustav kapitali asosida 1,16 trillion so‘m sof foyda olgan. O‘z navbatida Ipak yo‘li banki 602,42 milliard so‘m ustav kapitaliga ega holda 910,5 milliard so‘mlik sof foyda olgan. Solishtirish uchun 2024-yilda eng yuqori 1722,2 milliard so‘mlik sof foydaga erishgan

O'zmilliybank ustav kapitali 15,961 trillion so'm. Bundan xususiy kapital rentabelligi O'zmilliybankda keskin past ekanligiga, Hamkorbankda esa keskin yuqoriligi ko'rinadi. Mazkur jihat bevosita tijorat banklaridagi davlat ulushini xususiylashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Oxirgi yillarda yangi tashkil etilgan Yangi Bank, APEX bank, Hayot Bank, AVO Bankning 2024-yilni zarar bilan yakunlashlariga asosiy sabab operatsion faoliyati hali yo'lga qo'yilayotganligi bilan bevosita bog'liq.

Tijorat banklarining 2024-yildagi sof foydalarini taqsimlash va dividend to'lash to'g'risida aksiyadorlar qarorlari fond bozori uchun muhim signaldir. 2024 yil yakunlari asosida eng yuqori miqdorda dividend to'lovlarini amalga oshirgan TOP-20 ta emitent tarkibida 7 ta tijorat banki mavjud va ularning barchasi xususiy tijorat banklaridir. Jumladan 901,1 milliard so'm sof foydaga erishgan Orient Finans bank 94,64 foizlik qismini dividend to'lovlariga yo'naltirganligi aksiyadorlar manfaati birinchi o'ringa qo'yilganligini ko'rsatadi. Asia Alliance Bank ATB 400,6 milliard so'mlik sof foydaga erishgani holda 405,98 milliard so'm mablag'ni dividendga yo'naltirganligi o'tgan moliya yili sof foydasidan tashqari taqsimlanmagan foyda hisobidan ham dividend to'langanligidan dalolat beradi. Invest finans bank esa 241,74 milliard so'm sof foydaga erishgani holda, uning 47,41 foizini aksiyadorlarga dividend sifatida yo'naltirgan.

Dividend to'lovlari bo'yicha TOP-20 talikda birorta ham davlat ulushi yuqori tijorat banki mavjud emas. Lekin davlat ishtirokidagi tijorat banklari tomonidan dividend to'lanmasligi davlat budjeti qo'shimcha daromad bilan ta'minlanmasligi va davlat ishtirokidagi tijorat banklari investitsion jozibadorligi pasayishiga olib kelmoqda.

Sof foyda taqsimotida dividendga yetarlicha e'tibor qaratilmayotgan davlat ishtirokidagi tijorat banklari aksiyalari Toshkent RFBdagi kotirovkalari nominaldan ham past ekanligini quyidagi jadvalda ham ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval

O'zbekistondagi tijorat banklarining aksiyalari kotirovkasi tahlili, so'mda [7]

№	Tijorat banklari	Nominal baho	Bozor bahosi
Davlat ishtirokidagi banklar			
1.	O'zSQB	19	10,67
2.	Turonbank	1700	955
3.	BRB	119,25	82
4.	Aloqabank	1	0,45
5.	Mikrokreditbank	1068	646
6.	Agrobank	1 168	650
Xususiy banklar			
1.	Trastbank	1000	8500
2.	Ipak yo'li	10	96

3.	Hamkorbank	5	29
4.	Ipotekabank	1	1,18
5.	Universalbank	5000	8000
6.	Garant Bank	100	1044
7.	OCTOBANK	1000	57000

Tahlilga ko‘ra, listingdagi 6 ta ustav kapitalida davlat ulushi yuqori bo‘lgan tijorat banklarining barchasi oddiy aksiyalari fond bozoridan nominal qiymatdan keskin past narxda sotilmoqda. Mazkur holat ular dividend siyosatining aksi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yana ikkita davlat ishtirokidagi tijorat banklari O‘zmilliybank va Asakabank aksiyalari listingga qo‘yilmagan. Xalq banki aksiyalari listingdan o‘tgan bo‘lsada, amalda oldi-sotdi amalga oshirilmayapti. Har uchala tijorat bankining dividend to‘lovlari investorlar uchun jozibali, deya olmaymiz.

Xususiy tijorat banklari aksiyalari kotirovkasi esa listingdan o‘tgan holatda nominal bahodan nihoyatda yuqori. Mazkur jihat o‘z-o‘zidan ularda aksiyalar vositasida qo‘shilgan kapitalni oshirib borish orqali qimmatli qog‘ozlar bozoridan arzon kapital jalb qilish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi. Qo‘shilgan kapital xususiy tijorat banklarida yuqori, davlat ishtirokidagi banklarda esa pastligicha qolayotganligi ham fakt.

Tijorat banklari imtiyozli aksiyalar jozibadorlikni ta‘minlashda oraliq moliyaviy instrumentdir. Imtiyozli aksiyalar vositasida investorlar muntazam daromadlilik bilan ta‘minlanishi ochiq joylashtiriladigan oddiy aksiyalar bo‘yicha muntazam daromadlilik kutilmalariga asos bo‘ladi. Lekin bunda tijorat banki boshqaruvi aksiyaning arzon moliyaviy resurs jalb qilishdagi muhimligini anglagan bo‘lishi lozim. Amalda imtiyozli aksiyalarning jozibadorligidan tijorat banklari yetarlicha foydalana olmoqda, deya olmaymiz. Buni mamlakatimizdagi tijorat banklari kesimida ustav kapitalini shakllantirishda imtiyozli aksiyalar ulushi aks etgan quyidagi raqamlar yaqqol ko‘rsatib turibdi (3-jadval).

3-jadval

Tijorat banklari tomonidan imtiyozli aksiyalar emissiyasi tahlili

Bank nomi	Ustav kapital, milliard so‘mda	Imtiyozli aksiyalar, milliard so‘mda	Imtiyozli aksiyalarning ustav kapitalidagi ulushi, foizda
O‘zsanoatqurilishbank	4 628,94	7,0	0,151871
Agrobank	12 430,19	0,6	0,004698
Mikrokredit bank	7 145,34	0,1	0,002018
Garant bank	500,00	0,3	0,06
Biznesni rivoj-sh banki	5 689,08	1,1	0,018865
Turon bank	1 484,14	8,4	0,568999
Hamkor bank	646,65	20,2	3,124222

Aloqa bank	2 832,88	3,7	0,130256
Ipoteka bank	3 834,22	8,1	0,210004
Orient Finans bank	1 964,13	0,5	0,025457
Anor bank	800,00	200,0	25

Manba: Tijorat banklari ustavi asosida muallif tomonidan tuzilgan, 01.08.2025 holatiga

Bugungi kunda 35 ta tijorat bankidan faqat 11 tasi imtiyozli aksiyalari muomalada mavjud bo'lsa, qolgan 24 tasida ustav kapitali faqat oddiy aksiyalar hisobiga shakllantirilgan. Bunda Anor bank qonunchilikda belgilangan yuqori chegaradan foydalanub ustav kapitalining 25 foizini imtiyozli aksiyalar hisobiga shakllantirgan. Hamkorbank imtiyozli aksiyalari ustav kapitalining 3,12 foizdan ziyodroqni tashkil etadi. Qolgan 9 ta tijorat banki imtiyozli aksiyalari 1,0 foizdan ham keskin past. Tijorat banklarida imtiyozli aksiyalar afzalliklaridan samarali foydalanilmayapti. Aslida imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar qat'iy belgilanishi va muntazam to'lab borilishi fond bozorida emitent aksiyalari jozibadorligini oshiradi. Boshqa tomondan dividendlar qayt'iy belgilab qo'yilganligi imtiyozli aksiyalarni ochiq yoki ommaviy asosda joylashtirish orqali ustav kapitali va qo'shilgan kapitalni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida istiqbolda oddiy aksiyalar vositasida ochiq bozorga chiqishda oraliq bosqich vazifasini o'tab beradi.

Xulosa va takliflar

Tijorat banklari umumiy ustav kapitalida davlat ulushi yuqori bo'lsada, davlat ishtirokidagi tijorat banklari tomonidan 2024-yilda olingan moliyaviy natija zararda va rentabellik ancha past.

Tijorat banklari umumiy ustav kapitalida xususiy tijorat banklari ulushi 25 foizga ham yetmasada 2024-yil yakunlariga ko'ra 7,3 trillion so'm foydaga erishgan. Natijada xususiy tijorat banklari rentabelligi nihoyatda yuqoriligi bank sohasida ham xususiylashtirishni jadallashtirish muhimligini ko'rsatib beradi.

O'zbekistondagi tijorat banklari ustav kapitalini shakllantirishda imtiyozli aksiyalardan foydalanish darajasi nihoyatda past. Dividendlar qat'iy belgilab qo'yilishi va muntazab to'lab borilishi bois imtiyozli aksiyalar jozibadorligi nisbatan yuqoriligidan kelib chiqqan holda tijorat banklari kapitalini diversifikatsiyalashda mazkur instrumentdan kengroq foydalanish lozim. Bu oddiy aksiyalarni ochiq yoki ommaviy joylashtirishga ham tayyorgarlik vazifasini ham o'tab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni; <https://lex.uz/docs/5841063>

2. Gulyamova A. Formirovaniya rynochnoy stoimosti kommercheskix bankov Uzbekistana. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar". 2021, №1. – S. 43-51.
3. Nasirov E. Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining rolini oshirish masalalari. I.f.n. darajasini olish uchun diss. avtoref. – Toshkent, 2006. – 24 b.
4. Tursunov I. Povyshenie kapitalizatsii aksionerno-kommercheskogo banka. Monografiya. – T.: Innovatsion rivojlanish, 2020. – 120 s.
5. Kunarov R. Tijorat banklarida dividend siyosatini takomillashtirish. PhD diss. avtoref. Toshkent, 2023. – 65 b.
6. <https://bankers.uz/news/2030> - [2024 yilda O'zbekiston banklarining jami sof foydasi 2 barobarga kamaydi — infografika](#)
7. https://www.uzse.uz/isu_infos/STK/ asosida dissertant tomonidan tuzildi, 15.09.2025 yil holatiga.